

ONOMASTIKADA INSULONIMLARNING TUTGAN O‘RNI VA AYRIM INSULONIMLAR TAHLILI

Quryazova Niyozjon O‘tkir qizi

Urganch davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada onomastika nomshunoslik haqidagi fan, Onomastika sohasida atoqli ot sifatida mavjud ammo kam tahlil qilingan va o‘rganilmagan onomastik birliklar, Insulonim, ayrim insulonimlar tahlili va bir qancha orollarning lingvistik tahlili berilgan.

Kalit so‘zlar: Onomastika, nomshunoslik, insulonim, Yava, Tayvan, Galapagos, Yangi Gvineya orollari.

Tilshunoslik keng qamrovli sohalaridan biri hisoblanadi. Tilshunoslikning har qanday atoqli nomlari, ularning paydo bo‘lishi va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi bu- Onomastika. Onomastika, shuningdek, barcha atoqli nomlarning yig‘indisidir.

Onomastika – yunoncha onomastike – so‘zidan olingan bo‘lib, “nom qo‘yish san’ati” degan ma’noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma’noda qo‘llaniladi:

1. Ma’lum bir til, xalq tarkibida qo‘llangan barcha atoqli otlarning yig‘indisi.

2. Atoqli otlar, ularning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi

O‘zbek onomastikasi yoki nomshunosligi o‘tgan asrning 60-70-yillarida alohida ilmiy yo‘nalish sifatida yuzaga keldi. O‘zbek nomshunosligi o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab eng rivojlangan sohalardan biriga aylandi. Ayniqsa, bu sohaning antroponimika, toponimika, etnonimika kabi bir qator sohalarida juda barakali ishlar amalga oshirildi. Masalan, o‘zbek ismlari (antroponimlari) materiallari atroflicha to‘plandi, to‘rtta nomzodlik dissertatsiyasi (E.Begmatov – 1965, G‘.Sattorov – 1990, S.Rahimov – 1998, R.Xudoyberganov - 2007) himoya qilindi, E.Begmatovning “Kishi nomlari imlosi” (1970), “O‘zbek ismlari imlosi” (1972), “O‘zbek ismlari” (1991), “O‘zbek ismlari ma’nosi” (1998; 2004; 2010), “Ism chiroyi” (1994) nomli kitoblari nashr etildi.¹

¹ Bayramali Qilichev. «Onomastika» o‘quv qo‘llanma, 6-7-betlar.

XX asrning 80-90-yillarida Jizzax (1985), Guliston (1987), Qarshi (1989), Navoiy (1993; 1998) shaharlarida “O‘zbekiston onomastikasi” deb nomlangan butun ittifoq va respublika ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy anjumanlari o‘tkazilgan, ularning materiallari alohida to‘plamlar sifatida nashr etilgan edi.

Ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida “Nomshunoslik masalalari”, “O‘zbekiston toponimikasi”, “O‘zbekiston onomastikasi”, “O‘zbek tili onomastikasi” muammolariga bag‘ishlangan maxsus kurslar, ixtisoslik seminarlari o‘qiladigan bo‘ldi.

Onomastika sohasida bir qator samarali ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, O‘zbek nomshunosligida mavjud bo‘lgan ishlarning aksariyatida ismlar, qisman laqab va taxalluslar, mikrotoponim va makrotoponimlar, etnonimlar tahlil qilingan, xolos. Lekin o‘zbek tilidagi atoqli otlarning ba’zi tiplari shu kunga qadar deyarli o‘rganilgan emas yoki kam tahlil qilingan. Bunday misollar qatoriga mifonimlar, ktematonimlar, agnonimlar, nekronimlar, geonimlar, gemeronimlar, dokumentonimlar, oronimlar, patronimlar, pereytonimlar, xromonimlar, geortonimlar, speleonimlar fitonimlar, ekklezioneimlar, ergonimlar, xrematonimlar, badiiy onomastika, onomastik uslubiyat, atoqli otlarning imlosi, onomastik birliklarning amaliy transkripsiyasi va transliteratsiyasi, nomshunoslikning amaliy va nazariy muammolari, jumladan, onomastik leksikografiya muammolari kiradi.

Yuqorida aytib o‘tilgan misollarning bir nechtasi kam tahlil qilingan bo‘lsa ham onomastik birliklarning ba’zi tiplari atoqli ot sifatida mavjud va ma’lum bo‘lsa-da, ular deyarli izohlanmagan va tahlil qilinmagan. Masalan, insulonim, onoykonim, artionim, agionim, venesuonim, glyasionim, gemeronim, geortonim, ginekonim, dignitonim, ideonim, insektionim, katoykonim, litonim, marsionim, merkuronim, nautonim, matbuot nashrlari nomi, transport vositalari nomi, ilmiy, badiiy adabiyot va san’at asarlari atoqli oti va boshqalar.

“Insulonim” atamasiga diqqatimizni qarataylik, Insulonim-o‘zi nima? Onomastikaning yuqorida aytib o‘tilgan sohalaridan biri hisoblanib, Insulonim – (lotincha insula – orol, onoma – atoqli ot) – har qanday orolning atoqli oti hisoblanadi. Ushbu atama ham atoqli ot sifatida onomastika sohasida mavjud ammo tilshunoslar tomonidan alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. . Hozirgi kunda Insulonimlarning o‘rganilmaganligi tilshunoslar oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, bir qancha insulonimlarni lingvistik jihatdan tahlilga tortsak:

Yava oroli “indonezcha” “Jawa”.

Yava boshqa manbalarda protoavstroneziya tilidan olingan bo‘lib “uy” ma’nosida kelganligi va yana bir manbalarda Java –Jau o‘zagidan olinganligi, Sanskrit tilida uni “arpa”,yoki “uzoqda yotish” ma’nosida tarjima qilishimiz mumkin.

Tayvan orolinining yana bir nomi “Formoza” bu nom Xitoy tarixiy manbalarida Portugallar tomonidan qo‘yilgan atoqli nom bo‘lib “nafis, go‘zal” ma‘nolarida qo‘llangan¹

Galapagos oroli (Tinch Okeanning sharqiy qismida, Janubiy Amerika yaqinida ekvatorning xuddi o‘zida joylashgan) galapaga-ispancha so‘z bo‘lib “katta toshbaqa” ma‘nosini bildiradi. Bu yerda toshbaqalar ko‘pligidan mahalliy aholi shunday nom bergan.²

Yangi Gvineya (Tinch okeanning g‘arbiy qismidagi orol) – atoqli ot sifatida bu orolga 1545-yilda Inigo Ortiz de Retes Yangi Gveniya (ingliz tilidan olingan) nomini beradi (uning fikricha orolni nega bunday nom berishiga sabab mahalliy aholi aborigenlarga o‘xshashligini ta’kidlab o‘tadi). Papua-Yangi Gvineya, “Papua” malaycha tilidan olinganligi, “Papuva” rus tiliga tarjima qilinib, “jingalak” degan ma‘noni anglatgan. Papua nomini portugaliyalik Xorxe di Menezes 1526-yilda orolda yashovchi mahalliy aholining sochlari jingalak bo‘lganligi uchun shunday nom berganligini ta’kidlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Onomastikaning ko‘plab sohalari atoqli ot sifatida ma‘lum ammo o‘rganilmagan, bu jarayon esa tilshunoslar oldida turgan dolzarb muammolardan biri desak yanglishmaymiz albatta. Ammo hozirgi kunda chet el tadqiqotchi tilshunoslari o‘zlarining bir nechta orol nomlari va uning etimologiyasi, orol tilini o‘rganishayotganiga guvoh bo‘lamiz. 2018-yil 30-aprelda Orxus universiteti, Daniyadagi Orxus ilg‘or tadqiqotlar institutida ilmiy amaliy davra seminari bo‘lib o‘tadi. Bu seminarda dunyo bo‘ylab orollar, joylashuvlar, geografiyalar va tillarni birlashtirishning xilma-xilligi mavjud ekanligi, bu xilma-xillik 11 ta taqdimotchi tomonidan namoyish etildi. Savolga javob berish uchun taqdimotlarning uchta bosqichi bo‘lib o‘tdi: Orollar tillarida alohida narsa bormi? Agar shunday bo‘lsa, biz orol tili kabi narsa haqida gapira olamizmi? Ushbu tadqiqot orollarda so‘zlashuvchi tillar ustida ishlaydigan olimlarga taklif sifatida va ushbu fikrlarni rivojlantirish uchun orolshunoslikka tegishli lingvistik jihatlar bo‘yicha tadqiqotlarni rag‘batlantirish uchun taklif qilinganligini chet el jurnallari va ilmiy maqolalarida ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Bayramali Qilichev. Onomastika o‘quv qo‘llanma. Buxoro. 2023.
2. Rafiqov Vahob. Qiziqarli Geografiya. Toshkent. 2010.
3. Yo‘ldoshev. B. O‘zbek onomastikasi masalalari. Samarqand. 2011.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
5. Daryo. uz

¹

² Rafiqov.V. Qiziqarli geografiya. “Sharq” Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. T.2010. 123-b.